


## Asosiy kapitalga investitsiyalar 2021- yil yanvar-mart

Joriy davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **2678,1** mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **52,7** % ni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi **177,1** mlrd. soʻm yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **6,6** %ni tashkil etdi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalarning **93,3** %ni yoki **2500,2** mlrd. soʻm oʻzlashtirildi.


*mlrd. soʻm*




Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 6,6 % i yoki 177,8 mlrd. so‘mini markazlashgan investitsiyalar tashkil qildi. Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar mablag‘lari hisobidan asosiy kapitalga 89,7 mlrd. so‘m investitsiyalar kiritildi va o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2,9 % foizni tashkil qildi, Respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan 32,8 mlrd. so‘m yoki o‘tgan yilning joriy davriga nisbatan 91,3 %, suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan 1,9 mlrd. so‘m o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ni tashkil etdi.

**Markazlashgan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi,  
% da**

2020 - yil




2021 - yil




- Respublika byudjeti
- Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish
- O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar
- Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi

## Markazlashmagan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi, % da

2020 - yil



2021 - yil



- Korxonalar mablag'i
- Tijorat banklari kreditlari
- Boshqa qarz mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Xorijiy investitsiya va kreditlar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 93,3 % i yoki 2500,2 mlrd. so'mini markazlashmagan investitsiyalar tashkil qildi. Shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushiga to'g'ri kelmoqda. Bunga sabab viloyatimizda xorijiy korxonalar tomonidan ko'proq investitsiyalar jalb qilinganligi bilan bog'liqdir.

Korxonalar mablag'lari hisobidan 706,3 mlrd so'm investitsiyalar moliyalashtirilgan. Aholi mablag'lari hisobidan 354,2 mlrd. so'm yoki 26,3 % ni Tijorat banklari kreditlari hisobidan jami investitsiyalarning 4,6 % i yoki 124,7 mlrd. so'm investitsiyalar jalb qilindi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalar**  
(2021- yil yanvar-mart oylarida)


	mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	yakunga nisbatan, % da
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>2678,1</b>	<b>52,7</b>	<b>100</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>177,7</b>	<b>5,7</b>	<b>6,6</b>
➤ Byudjet mablag‘lari	32,8	91,3	18,5
➤ Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	53,3	-	29,9
➤ Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	1,9	8,5	1,1
➤ O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	89,7	2,9	50,5
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>2500,2</b>	<b>129,4</b>	<b>93,4</b>
➤ Korxonalarining o‘z mablag‘lari	706,3	140,1	28,3
➤ Aholi mablag‘lari	354,2	102,6	14,1
➤ To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	1314,9	139,2	52,6
➤ Tijorat banklari kreditlari	122,1	156,6	4,9
➤ Boshqa qarz mablag‘lari	2,7	231,5	0,1

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi **129,4** % ni yoki **2500,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi. O‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korxonalar va tashkilotlar mablag‘i **706,3** mlrd. So‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning **140,1** % i o‘zlashtirildi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalar hududlar kesimida**  
(2021- yil yanvar-mart oylarida)


	Jami		shu jumladan xorijiy investitsiya va kreditlari	
	mlrd. so‘m	O‘shish sura‘ti, % da	mlrd. so‘m	jamiga nisbatan ulushi, % da
➤ Viloyat bo‘yicha:	<b>2678,1</b>	<b>52,7</b>	<b>1404,6</b>	<b>52,4</b>
<i>shaharlar:</i>				
➤ Qarshi	396,4	157,2	175,6	6,7
➤ Shahrisabz	34,1	224,6	3,6	0,1
<i>tumanlar:</i>				
➤ G‘uzor	848,7	28,7	427,1	15,9
➤ Dehqonobod	35,3	56,4	4,6	0,2
➤ Qamashi	29,0	40,6	-	-
➤ Qarshi	213,5	121,3	130,9	4,9
➤ Koson	40,7	104,5	0,1	-
➤ Kitob	66,6	50,9	20,9	0,8
➤ Mirishkor	40,1	137,4	1,1	0,04
➤ Muborak	745,8	36,6 MAPTA	603,1	22,5
➤ Nishon	46,9	4,1	22,6	0,84
➤ Kasbi	53,3	51,7	10,1	0,4
➤ Chiroqchi	32,4	124,9	1	0,04
➤ Shahrisabz	44,6	140,7	0	0
➤ Yakkabog‘	50,3	169,0	4,0	0,2

## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida Qarshi shahar, Shahrisabz shahar, Muborak, Shahrisabz va Mirishkor tumanlarining o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Ushbu tumanlarda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning viloyatdagi ulushi **47,46** % ni tashkil qilgan bo'lsa, Nishon tumanida esa bu ko'rsatkich bo'yicha eng kam jalb etilgan investitsiya hajmiga to'g'ri keldi, ya'ni - **4,1** %.

## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, % da)




## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami mlrd. so'm	<i>shu jumladan, ulushi % da</i>		
		qurilish-montaj ishlari	mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jixozlari	boshqa xarajatl ar
➤ Viloyat bo'yicha:	2678,1	803,9	1106,4	767,8
<b>shaharlar:</b>				
➤ Qarshi	396,7	122,9	46,6	36,8
➤ Shahrisabz	34	16	237	1,7
➤ G'uzor	848,7	291	403,4	154,3
➤ Dehqonobod	35,3	25,1	1,4	8,8
➤ Qamashi	29	8,8	14,6	5,6
➤ Qarshi	213,5	30,5	174,7	8,3
➤ Koson	40,7	19,6	11,4	9,7
➤ Kitob	66,6	50,4	8,8	7,4
➤ Mirishkor	40,2	2,1	7,2	30,9
➤ Muborak	745,8	127,3	159,8	458,7
➤ Nishon	46,9	27,3	11,5	8,1
➤ Kasbi	53,3	27,3	18,2	7,8
➤ Chiroqchi	32,4	21,3	1,8	9,3
➤ Shahrisabz	44,6	20,6	19,2	4,8
➤ Yakkabog'	50,4	13,7	21,1	15,6



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

2021- yil yanvar-mart (jamiga nisbatan, % da)




Tog'kon sanoati tarmog'i bo'yicha **1197,3** mlrd. So'm o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 44,7 % ini tashkil qildi, ishlab chiqarish sanoati sohasida **671,3** mlrd. so'm investitsiya o'zlashtirilib, jami investitsiyadagi ulushi 25,1 % ni tashkil etdi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

2021- yil yanvar-mart oylarida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **767,8** mlrd. So‘mi boshqa yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, boshqa yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan investitsiyalarning hajmi jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning **28,7** % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi **803,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, jami investitsiyalarning **30,02** % ini o‘zlashtirildi.

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2021- yil yanvar-mart oylarida **1404,6** mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning **52,4** % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.




Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar **528,1** mlrd. so‘mni tashkil qildi va jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **37,6** %. Shuningdek, **747,2** mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi va jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **53,2** % ni tashkil qildi.

## Hududlar bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

	Xorijiy investitsiya va kreditlari (mlrd. so'm)	shu jumladan:	
		xorijiy investitsiya	xorijiy kreditlar
➤ <b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>1404,6</b>	<b>1314,9</b>	<b>89,7</b>
<i>shaharlar:</i>			
➤ <b>Qarshi</b>	175,4	90	85,4
➤ <b>Shahrisabz</b>	3,6	3,6	-
<i>tumanlar:</i>			
➤ <b>G'uzor</b>	427,1	426,7	0,4
➤ <b>Dehqonobod</b>	4,6	4,3	0,3
➤ <b>Qamashi</b>	-	-	-
➤ <b>Qarshi</b>	130,9	129,7	1,2
➤ <b>Koson</b>	0,2	-	0,2
➤ <b>Kitob</b>	21	21	-
➤ <b>Mirishkor</b>	1,1	0,5	0,6
➤ <b>Muborak</b>	603,1	603,1	-
➤ <b>Nishon</b>	22,6	22,6	-
➤ <b>Kasbi</b>	10,1	10,1	-
➤ <b>Chiroqchi</b>	1,0	-	1,0
➤ <b>Shahrisabz</b>	-	-	-
➤ <b>Yakkabog'</b>	3,9	3,3	0,6

**Uy-joylarni foydalanishga topshirish  
ming. kv. metr**



2021- yilning yanvar-mart oylarida jami umumiy maydoni 215,0 ming kv.metr (2010- yilning mos davriga nisbatan 108,5 %) bo'lgan 1278 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirildi. Ulardan umumiy maydoni 215 ming kv.metr bo'lgan 791 tasi qishloq joylarda foydalanishga topshirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarni xududlar kesimida solishtiradigan bo'lsak, eng 28 ming kv.metr va u viloyatda ishga tushirilgan umumiy maydonning 13,1 % ini tashkil etdi. Eng kam turar joy Mirishkor tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 0 % ni tashkil etdi.



## QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: O. Bozorov**

**Aloqa telefoni: (75) 221-32-47**